

NOYOB VA YO'QOLIB KETISH XAVF OSTIDAGI HAYVON TURLARI VA ULARNING EKOLOGIK AHAMIYATI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA

UNIVERSITETI TABIIY FANLAR FAKULTETI

BIOLOGIYA YO'NALISHI 4-KURS TALABASI

BEGBO'TAYEV SHARIF

Annotation: Ushbu ilmiy maqola butun dunyo hayvonlari insonlar ya'ni biz tufayli yo'qolib qirilib ketayotganligi va ularni muhofazasi qilish choralari haqida .

Abstract: Эта научная статья о том, что все животные мира исчезают из-за нас, то есть нас, и о мерах по их защите.

Abstract: This scientific article is about the fact that all the world's animals are disappearing because of us, i.e. us, and about the measures to protect them.

Kalitsòzlar: tabiatinson,Qizilkitob ,qoriqxona,flora,tropik,subtropik,ekologik,zot

Ключевые слова: природа, человек, Красная книга, заповедник, флора, тропический, субтропический, экологический, порода

Key words: nature, man, Red Book, nature reserve, flora, tropical, subtropical, ecological, breed

Bilamizki,bugunki kunda hayvonlarning kamayib borishi,turlar sonining yo'qolishi insonlarni beayov tarzda hayvonlarni ovlashi, turli antropogen omillar ta'siri sabab bo'lmoqda . Yer yuzida yildan yilga inson qo'li yetmaydigan yerlar kamayib bormoqda , tabiatdagи cho'l ,tog' ,o'rmonlar asl qiyofasi yo'qotib bormoqda . Bunga nima sabab deysizmi? Bunga biz insonlar sababchimiz nega , nima uchun

degan savollar tug'ilishi tabiiy hol bu yerda insonlarning manfaati yotibdi , bu manfaat natijasida hayvonlarni qirilib yo'q bo'lib ketayotgani ularni hayoliga ham kelmaydi. To'g'ri himoyaga olingan hayvonlar ham bor lekin , biz himoya qilganimiz bilan bu tarafdan hayvonlarni vahshiylarcha yo'q qilsak ,yo'qolish xavf ostida bo'lмаган hayvonlar ham yo'qolib ketadiku . Inson – bu tobora ko'proq tabiiy ekotizimlarni yo'q qiladigan va sayyoramizdagi hayvonat dunyosini buzadigan mashina “Qizil kitob” nima Bu xavf va umid kitobidir .Bu kitobni qayg'ular va alamlar kitobi ham desak bo'ladi .Chunki bu kitobda yer yuzidagi yo'qolib borayotgan hayvon zotlari va o'simlik turlari mujassamlashgan.“Qizil kitob’ harakatga chaqiruvchi kitobdir . Qizil kitob haqida yana bir muhim joyi bo'lib “Qizil kitob’ning sahifalari hech qachon tugamaydi ,doimo uning sahifalarini yangi hayvon va o'simlik turlari to'ldirib turadi. Qizil kitobni sahifalarni qisqartish uchun inson madaniyati va xulqini oshirishi va nafsi jilovlay olishi kerak desam xato bo'lmasa kerak.Sayyoramiz 8.3000turdagi hayvonlarni taniy boshlagan.Ularning 8 foizi yo'qolib ketgan 22foizi yo'q bo'lib ketish xavfi ostidagi hayvonlar. O'zbekiston faunasida umurtqali hayvonlarning 714 turi mavjud : shundan sutemizuvchilar 107 tur ,qushlar 467 tur sudralib yuruvchilar 61 tur, amfibiyalar 3ta va baliqlar 76ta turni o'z ichiga oladi .So'ngi o'n yil davomida tabiatdan foydalanishning kuchayishi oqibatida O'zbekistondagi ko'plab hayvon turlari antropogen omil ta'sir ostida qolib ,ularning yashash joylari va soni qisqardi ,ba'zilari esa butunlay yo'q bo'lib ketdi . Ayniqsa bu yerda ov jarayoni muhim ahamiyatga ega sutemizuvchi va qushlarning yirik turlarining insonlar tomonidan ayovsiz o'zlashtirilishi ,tashqi ta'sirga chidamli hayvonlarni ham soni kamayib bormoqda . “Qizil kitob”ning 2009yildagi nashrida sutemizuvchilardan 24tur , qushlarning 48turi, sudralib yuruvchilarning 16turi,baliqlarning 17turi xalqasimon chuvalchanglarning 3turi molyuskalarlarning esa

14turi bo'gimoyoqlilarning 60turi kiritilgan . Endi 2019yildagi nashriga nazar tashlaydigan bo'lsak sutemizuvchilarning 30 turi qushlarning 52 turi ,sudralib yuruvchilarning 21turi , baliqlarning 17turi, halqasimon chuvalchanglarning 3turi molyuskalarlarning 14turi ,va bo'g'imoyoqlilarning 66turi kiritilgan .Qizil kitobga

kiritilgan hayvonlar ro'yhati 1.alqor(tog' qo'yi) 2.baqra baliq 3.burgut 4.buxoro bug'usi(xongul) 5.echkemar 6.ilvirs 7.itolg'i 8.jayron 9.kapcha ilon 10.ko'k sug'ur 11.lochin 12.mo'ylovdor baliq 13.qirg'iy 14.qizilqum qo'yi 15.qo'ng'ir ayiq 16.qoplon 17.qora laylak 18.qumchumchuq 19.shalpanquloq 20.shomshapalak 21.silovsin 22.sirtlon 23.soxta kurakburun baliq 24.turna 25.tuvaloq 26.yo'rg'a tuvaloq 27.yomg'ir chuvalchangi(11tur) Bu yerda hali men aytmaganlarim qancha . Ko'rayapsizmi inson qanchalar tashqi muhitga, tabiatga , hayvonlarga , o'simliklarga hattoki o'ziga ham ta'sir ko'rsatmoqda .Butun bir ekotizimga bir tur yo'qolsa katta ta'sir ko'rsatadi.



Qor qoploni



Qo'plab hayvonlar sport ovlash obyekti va zooparkda ko'rgazmali ko'rinish sifatidayuqori qimmatlanadi. Qor qoploni quvish natijasida miqdori keskin kamaygan,bu qo'zal hayvonlar yo'qolib ketish arafasida. O'zbekistondagi qor qoploniareal maydoni 10 ming kv. km atrofida, bu jahon areali maydonini 0,5%dan ortiq emas.

Turkiston silovsini

Yirikmushuklar – ovchilar uchun qiziq o'lja, va bu ularni butunlay yo'qolibketishiga olib keldi. Ko'rilgan chora-tadbirlar: ovlashni taqilash,

Qizilkitobga kiritish va boshqalar turkiston silovsinini “qirilib” ketishidan nobut bo’lishinioldini oladi, lekin brakonyerlardan saqlamaydi. Shu yirtqichlarni o’zlariodamga hujum qilmaydilar. Turkiston silovsini “Halqaro yo’qolib ketish hafidagiyovvoyi fauna va florasini savdosi haqidagi Konventsya”ning II ilovasigakiritilgan, va ularni tirikligicha tutish jiddiy cheklangan.

Menzbir sug’uri



Hozirda Menzbir sug’urini miqdori ko’p emas, uning butun kichgina areali bo’yicha – 40 ming jonivordan ko’p emas. Agar sug’urni tabiatda dushmanlarini ko’pligiinobatga olinsa, bu judayam oz miqdor bo’lib chiqadi. Menzbir sug’uriyashaydigan joylarda, yozda ko’pincha qo’y podalari o’tlaydilar. Har bir cho’ponni 2-3 yirik iti bor, va ular sug’urlar oviga muljallangan. Qo’ylar esa o’tnishunchalik tepalab va eb tashaydi, natijada sug’urlarga deyarli hech narsaqolmaydi, ular kerakli miqdorda yog’ to’play olishmaydi va bahorda ko’pchilige guliksizlikdan halok bo’lishadi. Tabiatdagi biologik xilma-xillik insoniyat

hayoti uchun muhim ahamiyatga ega. Ammo zamonaviy davrda ko‘plab hayvon turlari yo‘qolib ketish xavfi ostida turibdi. Bu holatga inson faoliyati, iqlim o‘zgarishi, tabiiy yashash joylarining yo‘qolishi va noqonuniy ovchilik sabab bo‘lmoqda. Quyida dunyodagi noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi ayrim hayvonlar haqida ma’lumot beriladi.

Amur Yo‘lbarsi (*Panthera tigris altaica*)

Amur yo‘lbarsi dunyodagi eng yirik yo‘lbars turi bo‘lib, Rossiyaning Uzoq Sharqida yashaydi. Aholi sonining kamayishiga noqonuniy ovchilik va yashash hududlarining qisqarishi sabab bo‘lmoqda. Hozirda bu hayvon “Xalqaro Tabiatni Muhofaza Qilish Ittifoqi” (IUCN) tomonidan “yo‘qolib ketish xavfi ostida” deb e’lon qilingan.

G‘arbiy Tog‘ Gorillasi (*Gorilla beringei beringei*)

G‘arbiy tog‘ gorillalari Markaziy Afrikaning o‘rmonlarida yashaydi. Ularning soni keskin kamaygan, asosan yashash joylarining yo‘qolishi, kasalliklar va noqonuniy ovchilik sabab. Hozirda ularning soni ming nafardan kamroqni tashkil etadi.

Iberiya Rusi (*Lynx pardinus*)

Ispaniyada yashovchi Iberiya rusi dunyodagi eng noyob yirtqich mushuklardan biri hisoblanadi. Asosiy xavf omillari – yashash joylarining yo‘qolishi va quyonlar (ularning asosiy ozuqasi) sonining kamayishi. O‘tgan yillarda ularni ko‘paytirish va himoya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borildi.

Yangtze Daryo Delfini (*Lipotes vexillifer*)

Xitoydagi Yangtze daryosida yashovchi bu delfin turi deyarli yo‘qolib ketgan. Iqtisodiy faoliyat, daryo bo‘yida qurilishlar va ifloslanish sababli ularning soni keskin

kamaydi. 2006-yilda ushbu turning yo‘qolib ketgani e’lon qilindi, ammo ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, hali ham kichik populyatsiyasi mavjud bo‘lishi mumkin.

Sumatra Filisi (Elephas maximus sumatranus)

Indoneziyaning Sumatra orolida yashaydigan bu fillar turining soni keskin kamayib bormoqda. Asosiy xavf – o‘rmonlarning yo‘q qilinishi va noqonuniy ovchilik. Hozirda ular “kritik xavf ostida” deb baholanmoqda.

Noyob turlarni asrash muhimligi .Tabiiy muhitni asrash va noyob hayvon turlarini himoya qilish insoniyat zimmasidagi muhim vazifadir. Shuning uchun:Qonunlarni kuchaytirish va noqonuniy ovchilikni cheklash.Yashash joylarini saqlab qolish va tabiiy muhitni tiklash.Ommaviy axborot vositalari orqali aholining ekologik madaniyatini oshirish.Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

Noyob hayvonlarning ekotizimdagи o‘rnı

Tabiatda har bir tirik mavjudot muayyan vazifani bajaradi. Yo‘qolib ketish xavfi ostidagi hayvonlar ekotizimning muhim bo‘g‘ini bo‘lib, ular yo‘qolsa, butun tizim zarar ko‘rishi mumkin.Baliqlar va amfibiyalar – yirtqich hayvonlar uchun oziqa manbai bo‘lib, oziq zanjirining muhim qismini tashkil etadi.Tabiatni asrash – kelajak avlodlar uchun beqiyos boylikni saqlab qolish demakdir. Har bir inson ekologik muammolarga befarq bo‘lmasligi lozim. Biz ekologik muvozanatni buzamiz , har qanday tirik mavjudot ekotizimda o‘z vazifasini bajaradi . Bu changlanishga , nam joylarni yaratishga , oziq ovqat sifatida , populatsiyalarni nazorat qilishga yordam beradi. Agar biz boshqa turlarga ozuqa bo‘ladigan turlarini yo‘q qilsak , biz nafaqat ushbu turni balki, shu tur bilan oziqlanadigan boshqa turni ham yo‘q qilgan bo‘lamiz . Tirik tabiatdagи o’simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi muammosi. Yer yuzidagi hayotni ta’minlashda o’simliklar dunyosi, ayniqsa, o‘rmonlarning ahamiyati beqiyosdir. Hozirgi vaqtda yer yuzi quruqligining 25 % ni o‘rmonlar tashkil etadi. Ular shimoliy yarim sharda va tropik mintaqalarda tarqalgan. Biroq hozirgi kunda o‘rmonlarning

holatini yaxshi deb bo'lmaydi. Chunki, har yili 3 mlrd m³ hajmda o'rmonlar qirqilmoqda. FAO ma'lumotlariga ko'ra bu ko'rsatkich yaqin yillar ichida 1,5 martaga ortishi mumkin. Insoniyatni, ayniqsa, tropik va subtropik o'rmonlar muammosi tashvishga solmoqda. U yerlarda yiliga dunyo miqyosidagi qirqilishi kerak bo'lgan o'rmonlarning yarmidan ko'pi kesib tashlanmoqda. 160 mln hektar tropik o'rmonlar vayron bo'lgan, atigi yiliga 11 mln hektar maydon tiklanmoqda. Floraning kamayib ketishi "Qizil Kitob" yaratilishiga sabab bo'ldi. Hayvonot dunyosini muhofaza qilishimiz va undan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirdar -yovvoyi hayvonlarni saqlab qolish, tiklash va takror ko'paytirishga, ularning yashash muhitini urchish joylarini va ko'chib o'tish yo'llarini saqlab qolishiga , ov qilish jarayonlarini kamaytirishga harakat qilsak insoniylikdan bo'ladi desam mubolag'a bo'lmasa kerak. Ayniqsa jazirama issiq va quruq yoz kunlarida ,sovuq qish kunlarida qarovsiz hayvonlarga kerakli chora tadbirdarni ko'raylik.

Xulosa: To'g'ri har xil fikr yuritadigan insonlar bor ,bitta tur yo'q bo'lsa bo'libdi, biror nima o'zgarib qolarmidi bitta tur ekanku degan insonlar ham yo'q emas .Shu fikrga qo'shilasizmi ? Axir bitta tur yo'q bo'lsa, shu tur bilan oziqlanadigan tur, shu jumladan ikkinchi ,uchinchi oziqlanuvchilar balki ozuqa zanjiridagi turlar ham yo'q bo'lib ketadiku . Bizning hayotimiz ham shu hayvon o'simliklar bilan chambarchas bog'langan emasmi axir . .Keling do'stlar tabiatimiz hayvonlarini ,o'simliklarini himoya qilib ularga ozor yetkazmaylik .Biz tabiat bilan bir butun sistemamiz .Uni asrash bizning burchimiz va vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmatqul Ergashev, Temur Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. T.: "Yangi asr avlod", 2005.
2. www.uznature.uz—O'zbekiston "Qizil kitob"ining dolzarbliji.
3. www.uzstudent.uz—Referat—Qizil kitob.

4. www.ziyonet.uz—Kutubxona—Ekologiya—Ekologik muammolar.
5. International Union for Conservation of Nature (IUCN). (2024). *The IUCN Red List of Threatened Species*. www.iucnredlist.org
6. Nowell, K., & Jackson, P. (1996). *Wild Cats: Status Survey and Conservation Action Plan*. IUCN/SSC Cat Specialist Group.
7. WWF (World Wide Fund for Nature). (2023). *Endangered Species Facts*. www.worldwildlife.org
8. Berdikulov Khudoyshukur Keldiyorovich, Negmatova Surayyo Teshaevna, Normat Durdiev Khasanovich, & Artikova Lola Soatovna. (2024). THE SIGNIFICANCE OF BIOSTIMULATORS IN NON-TRADITIONAL CROP GROWING. The Bioscan, 19(Special Issue1), 356–360. [https://doi.org/10.63001/tbs.2024.v19.i02.S.I\(1\).pp356-360](https://doi.org/10.63001/tbs.2024.v19.i02.S.I(1).pp356-360)
9. Keldiyorovich, B. K. (2024). THE EFFECT OF STIMULANTS ON CROTALARIA HAY YIELD AND QUALITY INDICATORS. Cotton Science, 4(1)
10. Бердиқулов, Х. К., Ортиқова, Л. С., & Негматова, С. Т. (2024). КРОТАЛАРИЯ КҮК МАССА ҲОСИЛИГА БИОСТИМУЛЯТОРЛАРНИНГ ТАЪСИРИ. Science and innovation, 3(Special Issue 21), 93-97.\
11. Keldiyorovich, B. X. (2023). Species of the Genus Crotalaria L. and Their Biological Significance. Web of Agriculture: Journal of Agriculture and Biological Sciences, 1(4), 1-7.
12. Keldiyorovich, B. K., & Khushnazarova, N. D. BIOLOGY ECOLOGY AND ECONOMIC IMPORTANCE OF CROTALARIA JUNCEA
13. Keldiyorovich, B. X., & Khushnazarova, N. D. (2023). BIOGEN STIMULATORS DESCRIPTION AND CLASSIFICATION, TECHNOLOGY